

## TA'LIM METODLARI VA VOSITALARI. INTERFAOL METODLAR VA ULARNI QO'LLASH USULLARI.

**Marifjonova Maxliyoxon Xursanjon**

**Rafikova Dilafruz Kaxxaraliyevna,**

<sup>1</sup>qizi FarDU Axborot tizimlari va texnologiyalari yo'nalishi 3-kurs

[talabasi.marifjonovamaxliyoxon@gmail.com](mailto:talabasi.marifjonovamaxliyoxon@gmail.com)

<sup>2</sup>Farg'ona davlat universiteti, pedagogika kafedrasida katta o'qituvchisi p.f.b.f.d (PhD)

E-mail: [dilafruzrafikova.1983@gmail.com](mailto:dilafruzrafikova.1983@gmail.com)

ORCID: 0000-0002-5556-5880

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20292332>

**Annotatsiya:** Maqolada ta'lim jarayonida qo'llaniladigan pedagogik texnologiya-larning asosiy mazmuni, mohiyati va ta'lim jarayonini sifat darajasini oshirish uchun foydalaniladigan interfaol metodlarning turlari hamda ularni qo'llash texnologiyasi keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Interfaol metod, ta'lim beruvchi, ta'lim oluvchi, ta'lim metodlari, ta'lim, pedagogik texnologiya. Teaching Methods and Tools. Interactive Methods and Ways of Their Application. Marifjonova Maxliyokhon Khursanjon qizi Fergana State University Information Systems and Technologies direction, 3rd year student. [marifjonovamaxliyoxon@gmail.com](mailto:marifjonovamaxliyoxon@gmail.com) Rafikova Dilafruz Kaxxaraliyevna, Senior Lecturer at the Department of Pedagogy, Fergana State University, Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD) E-mail: [dilafruzrafikova.1983@gmail.com](mailto:dilafruzrafikova.1983@gmail.com) ORCID: 0000-0002-5556-5880

**Abstract:** The article presents the main content and essence of pedagogical technologies applied in the educational process, the types of interactive methods used to improve the quality level of the educational process, and the technology for their application.

**Keywords:** Interactive method, educator, learner, teaching methods, education, pedagogical technology. Методы и средства обучения. Интерактивные методы и способы их применения. Марифджонова Махлиёхон Хурсанджон кизи Ферганский государственный университет Направление «Информационные системы и технологии», студентка 3 курса. [marifjonovamaxliyoxon@gmail.com](mailto:marifjonovamaxliyoxon@gmail.com) Рафикова Дилафруз Каххаралиевна, Старший преподаватель кафедры педагогики Ферганского государственного университета, доктор философии по педагогическим наукам (PhD) E-mail: [dilafruzrafikova.1983@gmail.com](mailto:dilafruzrafikova.1983@gmail.com) ORCID: 0000-0002-5556-5880

**Аннотация:** В статье приведены основное содержание и сущность педагогических технологий, применяемых в процессе обучения, виды интерактивных методов, используемых для повышения качества уровня образовательного процесса, а также технология их применения.

**Ключевые слова:** Интерактивный метод, преподаватель, обучающийся, методы обучения, образование, педагогическая технология.

### KIRISH

Bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri ta'lim tizimi sifatini yaxshilash va o'quvchilarga sifatli ta'lim berishdir. Buning uchun pedagoglardan interfaol metodlardan unumli foydalanish, to'g'ri tanlov qilish va o'quvchilarda qiziqish uyg'otish talab etiladi. Shu bilan birga

pedagog o'z ustida ko'proq ishlashi va yangi interfaol metodlarni izlab topishi asosiy masalalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. Ushbu metodlarni qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiqdir. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining o'sishiga olib keladi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan bo'lib, bu tajribani tashkil etuvchi metodlar “interfaol metodlar” nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta'lim metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng qo'llanilayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta'lim metodlarining turlari ko'p bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonining deyarli barcha vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini tanlab qo'llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta'lim metodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to'g'ri tanlash muammosini keltirib chiqargan.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishi orttirilib, ularning ta'lim jarayonidagi faolligi doimiy rag'batlantirib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

“ Interfaol metod ” – bu biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro bahs-munozarada fikrlash asosida, hamjihatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o'rgatadi va mustaqil hayotga tayyorlaydi.

Interfaol metodlar deganda ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimlarning ham e'tiborga olinishi;
- ta'lim jarayoni ta'lim oluvchining maqsad va ehtiyojlariga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Shunday qilib, fanlarni o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega. Ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o'rganish va amalda qo'llash o'quvchi-talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to'g'ri yechimini topishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi-talabalarning ijodkorligi va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o'quvchi-talabalarning bilim, ko'nikma va malakalari kengayishi va chuqurlashtirishiga erishiladi.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, interfaol ta’lim metodlarini tegishli tahlil qilish va shu asosda ularni tasniflash zarurati ma’lum bo’ladi. Quyida ushbu masala yuzasidan umumiy mulohazalar keltiriladi.

Bu metodlarni tasniflashda ularni interfaol metodlar, interfaol ta’lim strategiyalari va interfaol grafik organayzerlarga ajratish mumkin. Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta’lim metodlari quyidagilar hisoblanadi :

Interfaol metodlar: “Keys-stadi” (yoki “O’quv keyslari”), “Blist-so’rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Muammoli ta’lim” va boshqalar.

Interfaol ta’lim strategiyalari: “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig-zag”, “Zinama-zina”, “Muzyorar”, “Rotatsiya”, “Yumaloqlangan qor” va boshqalar. Interfaol ta’lim metodlari tarkibidan interfaol ta’lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma’lum ma’noda strategik yondashuvga qiyoslanadi. Aslida bu strategiyalar ham ko’proq jihatdan interfaol ta’lim metodlariga tegishli bo’lib, ular o’rtasida boshqa farqlar yo’q.

Interfaol grafik organayzerlar: \*\* “Baliq skeleti”, “BBB”, “Konseptual jadval”, “Venn diagrammasi”, “T-jadval”, “Insert”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday?” va boshqalar. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko’rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Aslida bu grafik organayzerlar bilan ishlash ham ko’proq jihatdan interfaol ta’lim metodlariga tegishli bo’lib, ular o’rtasida boshqa farqlar yo’q.

Interfaol ta’lim metodlari ko’pincha turli shakllardagi o’quv mashg’ulotlari texnologiyalari bilan bir vaqtda qo’llanilmoqda. Bu metodlarni qo’llash mashg’ulot ishtirokchilarining faolligini oshirib, ta’lim samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi.

Interfaol metodlarni tanlashning navbatdagi mezonlari ularning ta’lim mazmuni xususiyatiga mos kelishidir. Metod mazmuni harakatlanish qismi sifatida ham aniqlanadi. Shu bois bu mezonni hisobga olish shubhasizdir. Bir metod yordamida mavzu mazmuni to’laroq ochib berilsa, ikkinchisi uni ijobiy o’zlashtirishga imkon tug’diradi. Interfaol metodlarni tanlashning yana bir mezonlari ularning talabalar o’quv imkoniyatlariga to’liq mos kelishi, ya’ni samarali o’quv faoliyati uchun ichki va tashqi shart-sharoitlarning birligini ta’minlashdir. Interfaol o’qitish metodlaridan foydalanishda pedagogning xususiy imkoniyatlariga mos kelishi lozim. Bu pedagogning o’qitish metodlari nazariyasi va amaliyoti, o’qitish jarayonining qonuniyatlari, bilish nazariyalari, ta’lim mazmuni nazariyasi va boshqa mavjud qonunlar bilan qurollanganlik darajasini hisobga oladi. Interfaol metodlarni tanlash mezonlaridan keyingisi – ularning o’quv jarayonini tashkil etish shakllari bilan mos kelishidir. O’qitishning yalpi, guruhli va individual shakllari turlicha metodlarni talab etadi. Masalan, debat metodi ikki talaba o’rtasidagi bahs hisoblansa, “aqliy hujum”da guruhdagi barcha talabalar ishtiroki zarur bo’ladi. Interfaol metodlarning pedagogik texnologik prinsiplariga mos kelishi umumlashtiruvchi mezon hisoblanadi

## **XULOSA**

Bugungi kunda dunyoda turli xil zamonaviy pedagogik texnologiyalar mavjud bo’lib, o’qitish jarayonida eng samaralisini tanlash birinchi navbatda dars beruvchi o’qituvchiga bog’liq ekanligini yaqqol ko’rish mumkin. Shunday ekan, o’qitishning interfaol usullarini tanlashda ta’lim maqsadi, ta’lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o’quv muassasasining o’quv-moddiy sharoiti, ta’limning davomiyligi, o’qituvchining pedagogik mahorati va boshqa omillarni e’tiborga olgan holda tanlash ta’lim sifatini yanada oshirishga asos bo’lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, interfaol metodlardan samarali foydalanish ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularning dars jarayonidagi faolligini oshirish hamda bilimlarni chuqur va puxta o’zlashtirishlariga imkon yaratadi. Interfaol yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni

o‘quvchi-talabalarda ijodkorlik, tashabbuskorlik va mas’uliyat hissini shakllantiradi. Natijada ta’lim jarayonining samaradorligi ortib, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga erishiladi. Interfaol metodlarni ta’lim jarayoniga to‘g‘ri va maqsadga muvofiq joriy etish bugungi ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biri bo‘lib, u ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘tarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### References:

1. Avlayev O.U., Jo‘rayeva S.N., Mirzayeva S.P. “Ta’lim metodlari” o‘quv-uslubiy qo‘llanma. “Navro‘z” nashriyoti, Toshkent – 2017.
2. Amanova A.N. O‘zbekistondagi gen muhandisligi sohasining istiqbollari va mavzuni o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish. “Journal of Natural Science” №2(7) 2022 y.
3. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi: Nasaf, 2000.
4. Yo‘ldoshev J.G., Usmonov S. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. T.: O‘qituvchi, 2004 yil.
5. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
6. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
7. Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938.
8. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Harvard University Press, 1978.